

**TERMINOLOGIK VARIANTLILIKNING UMUMIY TA’RIFI
VA FRANSUZ TILIDA VARIANTLILIKNI KELITIRIB CHIQRUVCHI
OMILLAR**

Abdullayeva Nilufar Nasulloyevna

Buxoro davlat universiteti

Fransuz filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

n.n.abdullaeva2019@buxdu.uz

Sharopova Malika Nurmatovna

Buxoro davlat universiteti 4-bosqich talabasi

malikasharopova123@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fan va texnika sohasining jadallik bilan rivojlanishi natijasida terminologiyaning ahamiyati va lingvistik tahlili muhokama qilinadi. Tibbiyot terminologiyasida fransuz tilidagi «variantlilik» tushunchasi keng yoritilib, turli kontekstlar, mintaqaviy farqlar va til rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan terminologik o‘zgarishlar tahlil qilinadi va bu o‘zgarishlarning muloqot va tarjima jarayonidagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *terminologiya, tibbiyot terminologiyasi, variantlilik, ilmiy til, kundalik til, mintaqaviy farqlar, tibbiy tarjima, kasbiy muloqot, terminologik tizim.*

Fan va texnika sohasining jadallik bilan rivojlanishi turli bilim yo‘nalishlarida maxsus axborotlarning sezilarli darajada ortishiga olib kelmoqda. Ushbu jarayon, o‘z navbatida, mazkur ma’lumotlarni yetkazish va ulardan samarali foydalanish uchun yangi lingvistik uslublar va vositalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Har qanday bilim sohasi shakllanishi va rivojlanishi orqali jarayon va tushunchalar haqidagi yangi bilimlarni ochishga xizmat qiladi. Terminologik tizimlarning tobora oshib borayotgan ahamiyati ushbu tushunchalarning mohiyati va funksiyalarini chuqur tahlil qilish zaruriyatini oshiradi. Fan sohaslarida tushunchalar tizimi maxsus terminlar vositasida ifodalanadi. Terminologiya esa tadqiqotchilar e’tiborini o‘ziga jalb qilgan holda mustaqil lingvistik yo‘nalishga aylangan.

Terminologiya – bu fan, texnika va rasmiy sohalarga oid maxsus tushunchalarni nomlash uchun shakllantirilgan tizimdir. U ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida faol qo‘llaniladi. Hozirgi zamonaviy tadqiqotlar asosida terminologiya mavjud tilda aniqlangan yoki ilmiy izlanishlar orqali ochilgan tushunchalar hamda hodisalarni ifodalashga xizmat qiladi. Terminologiyani faqat atamalar to‘plami sifatida emas, balki

ixtisoslashgan sohalarining kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan belgilar tizimi sifatida tushunish lozim.

Terminologik tizimlar inson faoliyatining muayyan sohasi bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ilmiy tushunchalarning nomlanishiga asoslanadi. Har bir termin muayyan fan yoki texnologiya sohasiga oid maxsus tushunchani ifodalab, boshqa tushunchalardan ajralib turadi. Shu sababli, bilim sohalaridagi atamalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular tizimni tashkil etuvchi aloqador tushunchalarni aks ettiradi. Atamalar esa o‘z navbatida ma‘lum bir tizimni ifodalovchi mantiqiy birliklardir.

Bugungi kunda fan va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi tilning ilmiy hamda kasbiy muloqotdagi o‘rnini yanada chuqurroq o‘rganishni talab qilmoqda. Shu jumladan, tibbiyot terminologiyasi ham o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, unda terminlarning mazmuni, tarkibiy tuzilishi, bir-biri bilan bog‘liqligi va amaliy jihatdan qo‘llanilishi keng o‘rganiladi. Bu esa tibbiyot sohasida ma‘lumot almashish jarayonini soddalashtiradi va undan unumli foydalanish imkonini beradi. Aynan shu jarayonda tibbiy sohadagi kasbiy matnlarda fransuzcha turli variantlilik tushunchasi muhim o‘rin tutadi, chunki bu tushuncha tibbiy terminologiya va uslubning turli kontekstlar va matn turlarida farqlanishini anglatadi, bu esa muloqotni yanada samarali va aniqroq qiladi. Boshqa tillarda uchragani kabi, fransuz tilida ham tibbiy terminologiya va uslub turli kontekstlarda farq qiladi. Bu farqlarni yaxshiroq tushunish uchun “variantlilik” tushunchasini ko‘rib chiqish zarur, chunki u tilning turli shakllarini va terminlarini qo‘llashda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni anglatadi.

Tibbiyotda, terminlar ko‘pincha turli shakllarda ishlatiladi.

Masalan:

1. «diabet» va «diabète sucré»

Bu terminlar o‘rtasida yaqin ma‘no mavjud bo‘lsa-da, bular har doim bir-birining o‘rnida qo‘llanilmaydi. Buning sababi «diabet» – umumiy tushuncha bo‘lib, qandli diabet (diabète sucré) va qandga aloqador bo‘lmagan diabet (masalan, «diabète insipide») kabi kasalliklarning keng doirasini ifodalaydi. Bu atama faqat shakar bilan bog‘liq emas, balki organizmdagi boshqa gormonlar yoki jarayonlar buzilishiga ham tegishli bo‘lishi mumkin. «Diabète sucré» – bu esa aynan qandli diabetni, ya‘ni organizmda insulin ishlab chiqarilishining buzilishi natijasida qon shakar darajasining ko‘tarilib ketishi bilan bog‘liq holatni bildiradi. Shuning uchun, «diabète sucré» faqat qandli diabetni ifodalaydi, lekin «diabet» kengroq ma‘noda qo‘llanadi va boshqa turdagi diabetlarni ham qamrab olishi mumkin. Bu noaniqlik yoki xato talqinni oldini olish uchun har bir atama o‘z o‘rnida ishlatiladi.

2. «Hypertension» va «pression artérielle élevée»

Bu ikki atama ham « yuqori qon bosimi »ni bildirib, bir-biriga yaqin ma’noga ega bo’lsa-da, ularning qo’llanilishi va aniq ma’nosi turlicha. Bu farqlar atamalarning ilmiy va kundalik kontekstda qanday ishlatilishiga bog’liq. « Hypertension » – tibbiyot terminologiyasida aniq klinik holatni bildiradi. Bu qon bosimining doimiy ravishda me’yordan yuqori bo’lishi, ya’ni tibbiy mezonlarga asoslangan holda tashxis qilinadigan kasallikdir. Misol uchun, bu atama odatda shifokorlar, tibbiy maqolalar va kasbiy hujjatlarda ishlatiladi. « Pression artérielle élevée » atamasi kundalik hayotda, bemorlar bilan muloqotda yoki kasallikning oldini olish haqida gapirganda qo’llaniladi. Va yana, bu termin har doim ham kasallikni anglatmaydi, vaqtincha yoki ma’lum bir vaziyatda qon bosimi oshgan holatni bildirishi mumkin. Bundan tashqari, shifokor bemorga murakkab terminlar o’rniga « Sizning qon bosimingiz biroz yuqori » kabi iborani ishlatishi mumkin va bu ular uchun tushunarli bo’ladi.

3. « Infarctus du myocarde » (yurak infarkti) va « crise cardiaque » (yurak xuruji)

Birinchisi klinik termin bo’lsa, ikkinchisi ko’proq kundalik tilda ishlatiladi.

4. « Insuffisance rénale » (buyrak yetishmovchiligi) va « problèmes rénaux » (buyrak muammolari)

Ilmiy va umumiy tushunchalar. Shunday qilib, atamalar o’rtasidagi bu nozik farqlar kasbiy muloqot va kundalik til o’rtasida moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Shifokorlar bu farqlardan bemorlarni yaxshi tushuntirish va kasallik haqida ma’lumot berishda foydalanadilar.

Fransuz tilida tibbiyot terminlarining variantlilikini nafaqat ilmiylik va so’zlashuv tili orasida, balki geografik joylashuvdagi atamalarning farqlanishi ham turli terminlar orasida bir qancha « variantlilik » ni keltirib chiqaradi. Misol sifatida keltirishimiz mumkin-ki, Fransiya « médicament » so’zi keng tarqalgan bo’lsa, Kvebekda « remède » so’zi ko’proq ishlatiladi. Bunday mintaqaviy farqlar tilning o’zgarishiga olib keladi va har bir hududda turli tibbiy atamalar ishlatilishiga sabab bo’ladi. Quyida shunga o’xshash misollarni ko’rib chiqishimiz mumkin:

1. Fransiya MRI (Magnetic Resonance Imaging) texnologiyasi uchun "IRM" (Imagerie par Résonance Magnétique) qisqartmasi ishlatiladi.

Kanada va boshqa frankofon mamlakatlarda esa ba’zida inglizcha qisqartma, ya’ni « MRI », texnik matnlarda yoki xalqaro kontekstda uchrashi mumkin.

2. Fransiya « seringue » (shprits) yoki « bande médicale » (tibbiy bog’lov) kabi atamalar keng tarqalgan.

Kvebek va shunga o’xshash ba’zi frankofon davlatlarda esa ko’pincha bunday atamalar ingliz tilidan olingan so’zlar bilan almashtiriladi, masalan, « needle » yoki « bandage » xalq orasida ko’proq ishlatilishi mumkin.

3. « traitement » davolash atamasi (fransiyada) = « soin » yoki « thérapie » (boshqa frankofon mintaqalarida)

Bu mintaqaviy farqlarni bilish, ayniqsa, frankofon mamlakatlar orasida tibbiy tarjima, o‘qitish yoki muloqot qilishda muhimdir. Har bir mintaqaning tibbiy terminologiyasi ularning lingvistik va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi, bu esa muloqotni moslashuvchan va tushunarli qilish uchun e’tiborga olinishi lozim.

Yuqorida ko‘rsatilganlardan tashqari, yana tilning rivojlanishi ham turli variantliliklarga sabab bo‘ladi. Tibbiyot terminologiyasi dinamik xarakterga ega bo‘lib, u yangi ilmiy kashfiyotlar, xalqaro standartlar va tilning tabiiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Tibbiyot global sohaga aylanganligi sababli, yangi terminologiya tez-tez ingliz, lotin, yoki boshqa tillardan fransuz tiliga kirib kelmoqda. Bu jarayon til variantlilikiga olib keladi. Misol uchun « Screening » (tekshiruv) so‘zi ba’zi frankofon mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinib, ishlatiladi, lekin Fransiyada rasmiy ravishda « dépistage » atamasi ishlatilishi targ‘ib qilinadi.

Frankofon davlatlarda esa xalqaro atama bilan bir qatorda mahalliy variantlar ham saqlanib qoladi, masalan, « examen de dépistage ».

Xulosa qilib aytganda, terminologik variantlilik lingvistik hodisa sifatida fan va texnika sohasining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tibbiyot terminologiyasida ham muhim o‘rin tutadi. Maqolada fransuz tilidagi tibbiy terminlarning turli variantlari, ularning kontekstual, mintaqaviy va lingvistik o‘zgarishlari atroflicha tahlil qilindi.

Tibbiyot sohasida terminlarning ilmiy va kundalik nutqdagi farqlari, kasbiy muloqotda ularning aniq va to‘g‘ri qo‘llanilishi, shuningdek, frankofon mamlakatlar orasidagi terminologik tafovutlar misollar orqali ko‘rsatib o‘tildi. Bundan tashqari, terminlarning evolyutsiyasi va xalqaro atamalarning fransuz tiliga kirib kelishi til rivojlanishining doimiy jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Shu sababli, tibbiy tarjima va muloqot jarayonida variantlilikni hisobga olish, terminlarni aniq qo‘llash hamda mintaqaviy va uslubiy tafovutlarni e’tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tibbiy axborotni to‘g‘ri yetkazish va tushunish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ÒZBEK, LOTIN VA FRANSUZ TILLARIDA TIBBIY TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK TAXLILI - CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND MANAGEMENT STUDIES 2024

2. Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology, Pedagogy: a Problem and Solutions Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar 2024

3. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, methods, and applications. John Benjamins Publishing. DOI: 10.1075/tlrp.1

4. Faber, P., & López Rodríguez, C. I. (2012). Terminological competence in translation. *Linguistica Antverpiensia, New Series–Themes in Translation Studies*, (11), 65–87. DOI: 10.52034/lanstts.v0i11.334

5. YOSHLAR VA TADBIRKORLINI QO‘LLAB-QUVVATLASH: MAMLAKATIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MUHIM ISLOHOTLAR VA ULARNING OMILI -TIBBIY TERMINLAR LUG‘ATINI YARALISHIDA LINGVISTIK TADQIQOTLAR 2024

6. TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI «YOSH OLIMLAR TIBBIYOT JURNALI» 2024- TIBBIYOT TERMINOLOGIYASIDAGI SO‘Z YASALISH USULLARINING MOHIYATINI HAMDA LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARINI TAHLIL QILISH

7. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 2023 TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O‘QITISH METODIKASI

8. Абдуллаева, Нилуфар Насуллоевна. "ФИЛОСОФИЯ ПОСЛОВИЦ: ГЛУБИНА МУДРОСТИ В КРАТКИХ ВЫСКАЗЫВАНИЯХ." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 710-714.

9. Абдуллаева, Н. "Пословица как объект филологического исследования." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 35 (2023): 35.

10. Nasulloyevna, Abdullayeva Nilufar. "Associative Characteristics of the Proverb." *Texas Journal of Philology, Culture and History* 6 (2022): 6-9.

11. Nasulloyevna, Abdullayeva Nilufar. "MAQOLLARDAGI MUSHTARAKLIK XUSUSIYATLARI." *OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI* 356 (2022).

12. Nasulloyevna, Abdullayeva Nilufar. "MAQOLLARDAGI MUSHTARAKLIK XUSUSIYATLARI." *OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI* 356 (2022).